

ELEKTRON PULLAR VA ULARNING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI

Abdumalikov Zafar Erkin o'g'li

Toshkent viloyati yuridik texnikum

davlat-huquqiy faoliyat yo'nalishi 2-kurs o'quvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7337171>

Annotatsiya: mazkur maqolada elektron pullar tushunchasi, elektron pullarning o'ziga xos xususiyatlari, shuningdek, elektron pullarning bugungi kundagi ahamiyati batafsil tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: elektron pullar, elektron savdo, virtual valyuta, emitent.

Hozirgi kunga kelib jadal sur'atlari bilan rivojlanib kelayotgan raqamli texnologiyalar iqtisodiyotimizning barcha sohalariga birin-ketin tezlikda kirib bormoqda. Mamlakatda mahsulot ishlab chiqarish va yetkazib berish jarayonining rivojlanishi raqobat muhitini shakllanishi va kuchayishiga ta'sir o'tkazayotgan bir vaqtda, elektron savdoning rivojlanishi turli xildagi to'lov amaliyotlarini, chakana to'lovlar bo'yicha tranzaksion xarajatlar qisqartirilishini, xususan, to'lovlar amaliyotini bajarish jarayonida moliyaviy institutlarning ishtirokini talab etmaydigan innovatsion va samarali to'lov vositalarining amaliyotga tatbiq etilishini taqozo etmoqda.

Barchamiz bilamizki, O'zbekiston Respublikasida elektron tijorat, ayniqsa, elektron pul muomalasining huquqiy asoslarini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilgan chora-tadbirlar, pandemiya tahdidlari bilan dunyoda kuchayib borayotgan ayni iqtisodiy beqaror vaziyatda ijobiy jihatlarni namoyon etdi hamda O'zbekiston Respublikasining elektron tijorat subyektlarini ham mahalliy, ham xorijiy xizmat ko'rsatish bozorlarida savdo aloqalarining amalga oshirilishini faollashtirishga zamin yaratdi.

Mamlakat miqyosida elektron pullar tizimini huquqiy takomillashtirish asosiy muhim masalalardan biriga aylanib bormoqda. O'zbekiston Respublikasida elektron to'lov tizimini takomillashtirish yuzasidan qator ishlar amalga oshirilib kelinmoqda, buning namunasi sifatida "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonunning qabul qilinishini keltirishimiz mumkin. Qabul qilingan Qonun yuzasidan elektron pullar muomalasi, jumladan, elektron pullarni chiqarish, foydalanish va ularni qoplash bo'yicha amalga oshiriladigan faoliyat huquqiy jihatdan takomillashtirildi va joriy qilingan huquqiy hujjat bu faoliyatning asosiy manbai sifatida xizmat qilib kelmoqda. 2019 yilning 1 noyabr sanasida 578-son bilan qabul qilingan "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonuni asosida "O'zbekiston Respublikasi hududida elektron pullarni chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalari" ishlab chiqilib, Adliya vazirligi

tomonidan 2020 yil 29 aprelda 3231-son bilan ro'yxatidan o'tkazilib amaliyotga joriy qilinishi elektron to'lov tizimida elektron pullarning ahamiyati nechog'lik muhimligini va bu jarayonni huquqiy nazoratini ta'minlashga muhim e'tibor qaratilayotganiligan dalolat beradi . Amaliyotga joriy qilingan ushbu hujjat ekspertlar tomonidan jahon tajribasini tahlil qilgan holda elektron pullar tizimi faoliyatini tashkil etish, elektron pullar muomalasi, elektron pullar tizimida risklarni boshqarish hamda tizimda xavfsizlikni ta'minlash maqsadida ishlab chiqildi.

Bugungi kunda Respublikamiz hududida 5 ta turdagi elektron pullar tizimi ro'yxatga olingan bo'lib, mavjud elektron pullar tizimi elektron hamyonlarda saqlanishi amaliyotda bizga ma'lum. Bu respublikamiz miqyosida ham dunyo mamlaktlari kabi elektron pullarga bo'lgan talab ortayotganidan dalolat bermoqda.

Elektron pullar saqlanadigan virtual hamyonlar asosan bank kartasi bo'lmagan, ammo shu bilan birga elektron puldan foydalanishni istaganlar uchun mo'ljallangan. Elektron hamyonlarining imkoniyatlari klassik plastik kartalarga nisbatan cheklangan.

Elektron pul - bu internetdagi turli xil tovarlar yoki xizmatlar uchun to'lash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan virtual valyuta. Elektron pullar, boshqa valyutalar singari, o'z nominal qiymatiga ega va ma'lum bir jahon valyutasiga bog'langan. Shunga ko'ra, elektron pullarni boshqa pul birliklari (valyuta ayirboshlash) uchun topilgan yoki sotib olingan boshqa pullar singari olish mumkin.

Virtual valyuta - bu o'z ichiga maxsus tizim ichidagi elektron pul, fizik jihatdan mavjud bo'lmagan mavhum qiymatlardir. Ya'ni, siz ularni qo'llaringizda ushlab turolmaysiz, ularni haqiqiy hamyonga joylashtirolmaysiz, bundan tashqari ular cheklangan aylanish doirasiga ega - faqat tarmoq.

Elektron pulni saqlash joyi ular uchun maxsus yaratilgan elektron to'lov tizimlaridagi hisob-kitoblar bo'lib, ularga kirish parol bilan himoyalangan. Ya'ni, turli xil to'lov tizimlari elektron pulni saqlash va kafil bo'lib, foydalanuvchi faqat ko'p sonli Internet tizimlaridan qaysi birida elektron hamyon yaratishni o'zi tanlaydi.

Bugungi kunga kelib elektron pul tizimlari naqdsiz pulni muomala qilishning eng ommabop turiga aylandi. Rivojlangan va rivojlanib borayotgan davlatlar butun dunyoga bo'yicha tarqalgan va ommaviy ko'lamga ega bo'lgan elektron pul muomolasi bilan bog'liq bank kartalarni muomalaga chiqarishgan. Dunyodagi eng mashhur, kredit va debet bank kartalari bilan ishlaydigan tizimlar bu: Visa, MasterCard, Visa Electron va Maestrodur. Bundan boshqa

kartalar bilan ishlaydigan bir qancha tizimlar ham mavjud albatta, faqat ular qamrab olgan amal qilish doirasi nisbatan torroq hisoblangani uchun tadqiqot izlanishlarida nisbatan kamroq foydalaniladi.

Elektron pullarni amaliyotda jismoniy shaxslarga sotish yoki jismoniy shaxslardan elektron pullarni sotib olish elektron pul tizimining agenti tomonidan emitent yoki operator bilan tuzilgan shartnoma asosida amalga oshiriladi, ushbu bitim tomonlarning huquq va majburiyatlarini, elektron pullarni sotish va sotib olish tartibi va shartlarini belgilaydi. Elektron pullar har bir elektron pul egasi uchun shakllanadigan elektron hamyon uchun emitentdan sotib olinadigan elektron pul tizimi orqali jismoniy shaxsga va elektron pul tizimining agentiga sotiladi.

Emitent tomonidan O'zbekiston Respublikasi hududida chiqarilgan elektron pullar faqat milliy valyutada nominal bo'lishi kerak.

Elektron pulni emitent tomonidan sotilishi faktini tasdiqlash uchun elektron pul egasiga uni berishda qog'oz yoki elektron shaklda maxsus kvitansiya taqdim etilishi kerak.

Yuridik nuqtayi nazaridan elektron pullarga to'xtalib o'tadigan bo'lsak, muomala jarayonida emitent tomonidan beruvchiga to'lovni elektron shaklda berish jarayonida pul olgandan keyin ham qabul qilingan majburiyatlar miqdoridan kam bo'lmagan miqdorda va qarz ko'rinishidagi elektron shakldagi to'lovdir. Elektron pullarning muomalasi emitentga da'vo huquqini berish yo'li bilan amalga oshiriladi va elektron pullar emitent tomonidan taqdim etilgan hajmda to'lov majburiyatlarini bajarish zaruriyatini vujudga keltiradi. To'lov majburiyatlarini hisobga olish maxsus qurilmada elektron shaklda amalga oshiriladi. Zamonaviy to'lov tizimini huquqiy jihatdan kafolatlash va himoyasini ta'minlash yuzasidan elektron hamyonni emitent tomonidan bloklash tizimi yo'lga qo'yilgan bo'lib, ular elektron hamyonni yo'qotish, o'g'irlash yoki ruxsatsiz foydalanish to'g'risida elektron pul egasidan xabarnoma olgandan keyin; elektron pul egasi tomonidan elektron pulni chiqarish, undan foydalanish va qaytarish to'g'risidagi bitim shartlari buzilgan taqdirda; shartnomada nazarda tutilgan boshqa hollarda amalga oshiriladi va mulkdor mulkini huquqiy himoyasini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Markaziy banki // https://cbu.uz/ru/press_center/news/269533/.

2. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki boshqaruvining "O'zbekiston respublikasi hududida elektron pullarning chiqarilishi va muomalada bo'lishi qoidalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 3231-sonli Qarori.
3. O'zbekiston respublikasi "To'lovlar va to'lov tizimlari to'g'risida"gi Qonuni 578-son 01.10.2019.